

**Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud  
ekspertiza markazi sud ekspertlarining faoliyatini reyting tizimida baholab  
borish to‘g‘risida  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi (keyingi o‘rinlarda – Markaz) sud ekspertlarining (keyingi o‘rinlarda – sud ekspertlari) faoliyatini kasbiy layoqatliligi, o‘tkazilgan sud ekspertizalarining sifati va boshqa mezonlarga asosan reyting tizimida baholash tartibini belgilaydi.

2. Faoliyat ko‘rsatib kelayotgan sud ekspertlarining ilmiy salohiyatini yanada oshirish, sud-ekspertlik sohasidagi innovatsion texnologiyalarni keng ommalashtirish, sud ekspertiza faoliyatida sog‘lom raqobat muhitini yaratish reyting tizimida baholashning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Sud ekspertlari faoliyatini baholash qonuniylik, oshkoralik, xolislik, adolatlilik va shaffoflik prinsiplariga asoslanadi. Bunda, berilgan sud-ekspertiza xulosalarining muddatida va sifatli bajarganligi, bajarilgan sud ekspertizalarining hajmi, sud ekspertining mehnat va ijro intizomiga rioya qilishi, ilmiy loyihalarda ishtirok etishi, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishi (falsafa doktori (Phd) ilmiy darajasi va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun izlanishlari), yangi sud ekspertiza turlarini joriy qilishi, yangi metodikalarni ishlab chiqishi, mavjud metodikalarni takomillashtirishi, amalga oshirilgan targ‘ibot tadbirlari, soha faoliyatini takomillashtirish yuzasidan bergan asosli takliflari inobatga olinadi.

3. Sud ekspertining faoliyatini kasbiy layoqatliligi, o‘tkazilgan sud ekspertizalarining sifati va boshqa mezonlarga asosan baholash qoida tariqasida bir yilda bir marotaba amalga oshiriladi. Sud ekspertlarini reyting tizimida baholash ushbu Nizomga 1-ilovada nazarda tutilgan sxemaga muvofiq tashkil etiladi. Baholash jarayonida elektron dasturlardan ham foydalanish mumkin.

**2-bob. Reyting tizimida baholash tartibi**

4. Reytingni belgilangan tartibda yuritish Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi sud ekspertlarining faoliyatini reyting tizimida baholab borish bo‘yicha komissiya (keyingi o‘rinlarda – Komissiya) tomonidan amalga oshiriladi.

5. Komissiya kotibi Komissiya majlislarini o‘tkazishni tashkil qiladi, hujjatlarni to‘playdi, bayonnomalarni rasmiylashtiradi, tanishtiradi, e‘lon qiladi,

saqlaydi, bayonnomalarda belgilangan tadbirlarni bajarilishini nazorat qiladi va boshqa tadbirlarni amalga oshiradi.

6. Komissiya a'zolari Komissiya majlisi o'tkaziladigan sanadan kamida 5 kun oldin xabardor qilinadi.

7. Komissiya majlislari uning a'zolari umumiy sonining uchdan ikki qismi ishtirok etgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi. Komissiya har bir a'zosining sud ekspertiga mustaqil tarzda tegishli mezonlar asosida qo'ygan ballar Komissiya kotibi tomonidan umumlashtirilib, Komissiya a'zolari soniga nisbatan yaxlitlash orqali o'rtacha umumiy ball aniqlanadi.

8. Faoliyatni baholash yuzasidan asoslantiruvchi hujjatlar tegishli tarkibiy bo'lim (laboratoriya va bo'limlar) mudirlari tomonidan Komissiya kotibiga har yili 10-yanvarga qadar topshiriladi, 10-yanvardan kechiktirib topshirilgan hujjatlar Komissiya kotibi tomonidan qabul qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

9. Komissiyaga asoslanmagan yoki soxta hujjatlarni taqdim qilish intizomiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

10. Komissiyaga taqdim etilgan hujjatlar har yili 20-yanvarga qadar tegishli tartibda ko'rib chiqilib va har bir faoliyatning dolzarbligi inobatga olinib, ushbu Nizomga 2-ilovada nazarda tutilgan mezonlar asosida baholanadi.

Komissiya tomonidan taqdim etilgan hujjatlar belgilangan mezonlar asosida 100 ballik tizimda baholanadi.

11. Sud eksperti faoliyatini reyting tizimi asosida baholash ko'rsatkichlari bo'yicha to'plangan ballardan kelib chiqib, quyidagicha tavsiflanadi:

86 — 100 ball — “a'lo”;

71 — 85 ball — “yaxshi”;

56 — 70 ball — “qoniqarli”;

0 — 55 ball — “qoniqarsiz”.

12. Komissiya majlisi bayonnoma orqali rasmiylashtiriladi, baholash jadvali bayonnomaga ilova qilinadi.

### **3-bob. Reyting natijalari bo'yicha sud ekspertlarini rag'batlantirish**

13. Reyting natijasiga ko'ra, Komissiya tomonidan faoliyati “a'lo”, “yaxshi” va “qoniqarli” deb topilgan sud ekspertlariga nisbatan quyidagicha oylik ish haqi fondiga ustama o'rnatish hamda Markazning rivojlantirish jamg'armasi hisobidan bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantirish yuzasidan takliflar kiritiladi:

- 86-100 ball to'plaganlarga bazaviy hisoblash miqdorining **50 baravari** miqdorida bir martalik pul mukofoti va oylik ish haqi fondiga lavozim maoshining **100 foiz** miqdorida ustama o'rnatish;

- 71-85 ball to'plaganlarga bazaviy hisoblash miqdorining **25 baravari** miqdorida bir martalik pul mukofoti va oylik ish haqi fondiga lavozim maoshining **85 foiz** miqdorida ustama o'rnatish;

- 56-70 ball to'plaganlarga bazaviy hisoblash miqdorining **15 baravari** miqdorida bir martalik pul mukofoti va oylik ish haqi fondiga lavozim maoshining **70 foiz** miqdorida ustama o'rnatish.

**14.** Sud eksperti faoliyatini reyting tizimida baholashda faoliyati qoniqarsiz deb topilgan sud ekspertlarini lavozim maoshiga qo'llanib kelingan rag'batlantirishlar kamaytirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Reyting tizimi asosida baholash faoliyati qoniqarsiz deb topilganligi sud ekspertiga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo'llanilishiga asos bo'lishi mumkin.

**15.** Komissiya reyting natijalarini har yili 25-yanvarga qadar e'lon qiladi.

**16.** Markaz har yili 10-martga qadar reyting ko'rsatkichlariga asosan sud ekspertlariga nisbatan rag'batlantirish, mavjud rag'batlantirishni kamaytirish va bekor qilish yoki intizomiy jazo chorasi qo'llashgacha bo'lgan choralarni ko'radi.

#### **4-bob. Yakunlovchi qoidalar**

**17.** Reyting ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan sud ekspertining ish faoliyatini ommalashtirish kelgusida uni boshqa rag'batlantirish va mukofotlar bilan taqdirlashda hisobga olinadi.

**18.** Reyting ko'rsatkichi yuqori bo'lgan ekspertlar ro'yxati Markazning veb-saytida e'lon qilinadi. Shu bilan birga, ushbu xodimlar haqidagi ma'lumotlar Markazning e'lonlar taxtasiga joylashtiriladi.

**19.** Ushbu Nizom talablarining buzilishiga yo'l qo'ygan aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Adliya vazirligi huzuridagi  
X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud  
ekspertiza markazi sud ekspertlarining  
faoliyatini reyting tizimida baholab borish  
to'g'risidagi nizomga  
1-ilova

**Sud ekspertlarini reyting tizimida baholashni tashkil  
etish sxemasi**

<b>Bosqichlar</b>	<b>Subyektlar</b>	<b>Tadbirlar</b>	<b>Bajarish muddatlari</b>
1-bosqich	Markazning tegishli tarkibiy bo'lim (laboratoriya va bo'limlar) mudirlari	Faoliyatni baholash yuzasidan asoslantiruvchi hujjatlarni Komissiya kotibiga topshirish.	har yili 10-yanvarga qadar
2-bosqich	Sud eksperti faoliyatini kasbiy layoqatliligi, o'tkazilgan sud-ekspertizalarining sifati va boshqa mezonlar asosida baholash bo'yicha komissiya	1. Komissiyaga taqdim etilgan hujjatlarni tegishli tartibda ko'rib chiqib, har bir faoliyat dolzarbligini inobatga olib baholash.	har yili 20-yanvarga qadar
		2. Komissiya majlisini bayonoma orqali rasmiylashtirish, baholash jadvalini bayonnomaga ilova qilish.	har yili 20-yanvarda
3-bosqich	Sud eksperti faoliyatini kasbiy layoqatliligi, o'tkazilgan sud-ekspertizalarining sifati va boshqa mezonlar asosida baholash bo'yicha komissiya	Reyting ko'rsatkichi yuqori bo'lgan ekspertlar ro'yxatini Markazning veb-saytida va boshqa ijtimoiy tarmoqlarida e'lon qilish. Shu bilan birga, ushbu xodimlar haqidagi ma'lumotlarni Markazning e'lonlar taxtasiga joylashtirish.	har yili 25-yanvarga qadar
4-bosqich	Markaz	Baholash natijasida to'plangan reyting ko'rsatkichlariga asosan sud ekspertlariga nisbatan rag'batlantirish, mavjud rag'batlantirishni kamaytirish va bekor qilish yoki intizomiy jazo chorasi qo'llashgacha bo'lgan choralarni ko'rish.	har yili 10-martga qadar

## Sud ekspertlarining faoliyatini kasbiy layoqatliligi, o'tkazilgan sud ekspertizalarining sifati va boshqa mezonlarga muvofiqligi darajasini belgilash mezonlari

T/r	Mezonlar	Ball*
<b>Ijobiy ko'rsatkichlar</b>		
1.	<p>Sud ekspertining sud-ekspertlik faoliyatining asosiy prinsiplariga rioya etganligi. <i>Bunda, sud eksperti tomonidan bajarilgan ekspertiza xulosalari va mutaxassis fikrlarini tegishli mas'ul xodimlar tomonidan o'rganishlar (rejali o'rganishda, murojaatlarni ko'rib chiqishda, qayta ekspertizalar tayinlanganda, taqrizlar hamda kunlik monitoringlar o'tkazilganda) jarayonida aniqlangan quyidagi holatlar inobatga olinadi:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilinganligi uchun 5 ball;</li> <li>- inson huquq va erkinliklariga rioya etilganligi uchun 5 ball;</li> <li>- tadqiqotlar o'tkazishning xolisligi, har tomonlamaligi va to'liqligiga rioya etilganligi uchun 5 ball.</li> </ul> <p><i>Mazkur mezon yuzasidan har bir ekspert kesimidagi ma'lumotlar Markazning Tashkiliy-nazorat va tahlil bo'limi, Sifat menedjmenti bo'limi hamda Kadrlar bo'limi tomonidan umumlashtirilib boriladi hamda yil yakunida komissiyaga taqdim etiladi.</i></p>	0 – 15
2.	<p>Sud ekspertiza tadqiqotlarini bajarganligi. <i>Bunda:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- belgilangan me'yor bajarilganda 5 ball;</li> <li>- me'yordan ortiq bajarilgan har bir baravar uchun 2 ball, biroq eng yuqori ball – 10 ballgacha belgilanadi.</li> </ul>	0 – 15
3.	<p>Sud ekspertizasi (tadqiqoti)ni tayinlash haqidagi qaror (ajrim), advokatlik so'rovi hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarida ko'rsatilgan savollarga to'liq va asoslantiruvchi dalillar bilan ekspert tomonidan xulosa va mutaxassis fikri berilganligi. <i>Bunda:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- sud eksperti tomonidan bajarilgan ekspertiza xulosalari va mutaxassis fikrlarining sifati va muddatlariga rioya qilinganligi yuzasidan o'rganishlar jarayonlarida xato va kamchiliklar aniqlanmaganligi uchun 6 ball;</li> <li>- sud-tergov organlari tomonidan qayta ekspertizalar tayinlanmasligi, shuningdek tayinlanganda ham qaror (ajrim)dagi tayinlashga asos bo'lgan vajlar o'z tasdig'ini topmaganligi uchun 4 ball.</li> </ul> <p><i>Mazkur mezon yuzasidan har bir ekspert kesimidagi ma'lumotlarni Markazning Tashkiliy-nazorat va tahlil hamda Sifat menedjmenti bo'limlari tomonidan umumlashtirilib boriladi hamda yil yakunida komissiyaga taqdim etiladi.</i></p>	0 – 10
4.	<p>Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga asosan mutaxassis fikrlari berishi (<i>har bir berilgan mutaxassis fikri uchun 0,2 ball, biroq eng yuqori ball – 8 ballgacha belgilanadi.</i>)</p>	0 – 8
5.	<p>Yangi sud-ekspertiza turlari yoki yangi metodikalarni amaliyotga joriy qilishdagi ishtiroki uchun.</p> <p><i>Bunda, yangi sud-ekspertiza turlari yoki yangi metodikalarni hammualliflikda tayyorlashda teng xissa qo'shgan hammualliflar soni 3 nafargacha bo'lsa har biriga 5 balldan, 3 nafardan 5 nafargacha holatlarda esa 3 balldan belgilanadi.</i></p> <p><i>Yangi sud-ekspertiza turlari yoki yangi metodikalarni tayyorlashda hammualliflarning qo'shgan hissasi turlicha bo'lsa, ular bo'yicha ballar qo'yidagicha belgilanadi:</i></p>	0 – 5

	<p>- qo'shgan hissasi 15 foizgacha – 2 ball;  - qo'shgan hissasi 16 dan - 20 foizgacha – 3 ball;  - qo'shgan hissasi 21 dan - 30 foizgacha – 4 ball;  - 30 foizdan yuqori – 5 ball.</p> <p>Mazkur mezon bo'yicha ball berilishida tadqiqotlar yuzasidan tasdiqlangan rejalar, dasturlar, Markazning Ilmiy kengashiga taqdim etilgan hisobotlar hamda Ilmiy kengashning qarori, shuningdek yangi tur va metodikani tayyorlash bo'yicha rahbarning hammualliflar ishtiroki to'g'risidagi ma'lumoti inobatga olinadi.</p>	
6.	<p>Mavjud foydalanib kelinayotgan 1 ta uslubiy qo'llanmani tanqidiy tahlil qilgan holda uni takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqishi va ularni Markazning Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot institutiga kiritishi.</p> <p>Mazkur mezon bo'yicha ball quyidagi tartibda beriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- 1 ta uslubiy qo'llanma (uslubiyot)ni batafsil tahlil qilgan holda amaliyotdagi mavjud muammolarni bartaraf etishini inobatga olgan to'liq tahririni ishlab chiqib kiritishi 5 ball;</li> <li>- 1 ta uslubiy qo'llanma (uslubiyot)ni tanqidiy tahlil qilgan holda sohadagi mavjud muammolardan kelib chiqqan qo'llanmani takomillashtirishga doir asoslantirilgan takliflar ishlab chiqib kiritishi 2 ball.</li> </ul> <p>Bunda, uslubiy qo'llanma (uslubiyot)ni to'liq yangi tahririni hammualliflikda tayyorlashda hammualliflar soni 2 nafar bo'lsa har biriga 5 balldan, 3 nafar bo'lgan holatlarda esa 3 balldan belgilanadi.</p> <p>Uslubiy qo'llanma bo'yicha takliflarni tayyorlashda hammualliflarning qo'shgan hissasi turlicha bo'lsa, ular bo'yicha ballar qo'yidagicha belgilanadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- qo'shgan hissasi 33 foizdan kam bo'lsa – 2 ball;</li> <li>- qo'shgan hissasi 33 dan - 50 foizgacha – 4 ball;</li> <li>- qo'shgan hissasi 50 foizdan yuqori bo'lsa – 5 ball.</li> </ul> <p>Mazkur mezon bo'yicha ball berilishida tadqiqotlar yuzasidan Markazning Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti hamda laboratoriya (bo'lim) rahbarining hammualliflar ishtiroki to'g'risidagi ma'lumoti inobatga olinadi.</p>	0 – 5
7.	<p>Ilmiy (grant) loyihalarida ijrochi, ilmiy ishlarni tayyorlashga rahbar hamda dissertasiya tadqiqotlarini amalga oshirishga mo'ljallangan Ilmiy kengashlarda a'zo sifatidagi ishtiroki.</p> <p>Bunda, mazkur mezon bo'yicha quyidagi asoslar biri mavjud bo'lganda 5 ball beriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- sud ekspertiza sohasiga oid ilmiy (grant) loyihalarida ijrochiligini tasdiqlovchi hujjat vakolatli organlar tomonidan taqdim etilganda;</li> <li>- ilmiy ishlarni tayyorlashga rahbarlik qilishi to'g'risidagi Ilmiy kengash tomonidan ma'lumot taqdim etilganda;</li> <li>- ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash yoki ilmiy seminar a'zosi ekanligini tasdiqlovchi hujjatni Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan taqdim etilganda.</li> </ul> <p>Bir nechta ilmiy kengash yoki ilmiy seminar a'zolik, ilmiy rahbarlik hamda ilmiy (grant) loyihalarida ijrochiligi sonidan qat'i nazar maksimal 5 ball belgilanadi.</p>	0 – 5
8.	<p>Ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishi (falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun izlanishlarni olib borishi).</p> <p>Bunda, mazkur mezon bo'yicha ball quyidagi tartibda byeriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- erkin (mustaqil) izlanuvchi sifatida tadqiqotlarni boshlaganligi uchun – 3 ball;</li> <li>- tasdiqlangan ish rejasida ko'rsatilgan tadbirlarni o'z muddatida bajarib kelayotganligi uchun – 4 ball;</li> <li>- himoya qilganligi uchun – 5 ball.</li> </ul> <p>Sud ekspertiga asossiz ravishda belgilangan muddatlarda ilmiy ishi yuzasidan ishlarni amalga oshirmagan yoki himoya qilmagan bo'lsa, tegishli ball berilmaydi.</p>	0 – 5
9.	<p>Xorijiy tillarni bilish darajasi  (V2 va undan yuqori darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi. Bunda, olingan sertifikatning amal qilishi muddati davomida inobatga olinadi).</p>	5
10.	<p>Quyidagi tadbirlardagi ishtiroki uchun (bunda, ushbu bandeda ko'rsatilgan tadbirlar uchun eng yuqori ball – 18 ballgacha belgilanadi):</p>	0 – 18

	Ilmiy nashrlar va qo‘llanmalar tayyorlanishi (hammualliflikda tayyorlangan nashrlar uchun ballar ishtirokchilar o‘rtasida teng taqsimlanadi)	Xorijiy har bir nashr uchun 10 ball	Mahalliy har bir nashr uchun 3 ball	
	OAV orqali hamda ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlari, shuningdek, ilmiy anjumanlar va seminarlarda ishtiroki uchun	Respublika har bir tadbir uchun 2 ball	Viloyat har bir tadbir uchun 1 ball	
		har bir tadbir uchun 1 ball		
	Mehnat jamoalarida uchrashuvlar o‘tkazganligi, shuningdek faoliyat yuritadigan muassasasining rasmiy axborot manbalarida chiqishlari hamda boshqalar uchun	har bir tadbir uchun 0,5 ball		
11.	Mehnat intizomiga rioya etishi. <i>Bunda asossiz ravishda:</i> - ikki marta mehnat intizomini buzganligi uchun 4 ball; - uch marta mehnat intizomini buzganligi uchun 3 ball; - to‘rt marta mehnat intizomini buzganligi uchun 2 ball; - besh marta mehnat intizomini buzganligi uchun 1 ball; - olti va undan ko‘p marotaba yoki bir marotaba qo‘pol ravishda mehnat intizomini buzganligi uchun 0 ball. <i>Mazkur band bo‘yicha Kadrlar bo‘limi tomonidan har bir xodim kesimida yozma ma‘lumot taqdim etiladi.</i>			0 – 5
12.	Jamoat ishlaridagi ishtiroki yoki yosh sud ekspertlarga ustozlik qilishi. <i>Bunda:</i> - jamoat ishlaridagi faol ishtiroki uchun 2 ball; - jamoat ishlarida qisman ishtiroki uchun 1 ball; (mazkur band bo‘yicha Kadrlar bo‘limi va Markazning Kasaba uyushmasi tomonidan har bir xodim kesimida yozma ma‘lumot taqdim etiladi). - ikki yoki undan ortiq yosh sud ekspertlariga ustozlik qilganligi uchun 4 ball; - bir nafar yosh sud ekspertiga ustozlik qilganligi uchun 2 ball. (mazkur band bo‘yicha yosh sud ekspertlarga ustozlik qilishi yuzasidan ball belgilashda Ekspert-malaka komissiyasining bayonnomalari asos bo‘ladi).			0 – 4
<b>Salbiy ko‘rsatkichlar:</b>				
1.	Tadqiqot o‘tkazish muddati asossiz o‘tkazib yuborilgan ishlar (har bir holat uchun)			-2
2.	Sud tomonidan asossiz deb topilgan yoki bekor qilingan yoxud qayta ekspertiza natijasida tasdiqlanmagan sud ekspertiza xulosalari (har bir xulosa uchun)			-10
3.	Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qonunchilik buzilishi holati bo‘yicha kiritilgan asosli taqdimnomalar va xususiy ajrimlar (har bir kiritilgan taqdimnoma va xususiy ajrim uchun)			-10
4.	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarida ko‘rsatilgan vajlarning qisman/to‘liq o‘z tasdig‘ini topishi (har bir qisma/to‘liq tasdig‘ini topgan murojaat uchun)			-5/-10
5.	O‘tkazilgan taqrizlar bo‘yicha sud ekspertiza xulosalarida tasdiqlangan sud ekspertizalarni o‘tkazish metodikasi qoidalari buzilganligi aniqlanishi (har bir kamchilik aniqlangan sud ekspertizasi xulosasi uchun)			-5

Izoh: \* mazkur ustunda ko‘rsatilgan ball miqdori ijobiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha tegishli tadbirlarni amalga oshirish natijasida olishi mumkin bo‘lgan eng yuqori ball miqdorini tashkil etadi.